



BUXORO MUZEY FONDI LIBOSLAR KOLLEKSIYASI

Sultonova Nigina Sheraliyevna

Buxoro davlat pedagogika institute

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Tel:90-513 14 18

Annotatsiya:

Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek milliy libosining muzey fondida to'planishi yoritilgan. Kolleksiya dan o'rin olgan liboslar klassifikatsiyasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: muzey, fond, libos, adras, ikat, so'zani, shoyi, chopon

Mustaqil yurtimizda hozirgi kunda unutilayotgan qadimgi milliy an'analarimizni, qadriyatlarimizni qayta tiklash borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Tarixning o'rganilmagan qirralari tahlil qilinmoqda. Xuddi shunday liboslar ham boy madaniyatimiz ko'zgusi bo'lib, uning qadim zamonlardan bugungi kunga qadar bo'lgan tarixi insoniyatning butun o'tmishini, moddiy va ma'naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o'ziga xosligini aks ettirib turadi. Insoniyat tarixi - tabiat va hayot haqidagi oddiy tasavvurlardan, cheklangan ehtiyojlardan murakkab ma'naviy faoliyat darajasigacha o'sish jarayonini o'z ichiga oladi. Insoniy sivilizatsiyaning boshlanishida ma'naviyat bir paytning o'zida insonning tafakkur hosili sifatida ko'zga tashlanadi.

Hozirgi kunda muzeylarda saqlanayotgan XIX – XX asr Buxoro milliy liboslari namunalari: Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi kolleksiyalari, O'zbekiston Respublikasi muzeylari, xorijiy davlatlar to'plamlari va xususiy kolleksiyalarda mavjud bo'lib, ular bizning tadqiqotimiz mavzusi uchun asosiy manbalar bo'lib xizmat qildi. Buxoro o'tmishi garchi tarixiy va tadrijiy voqealarga nihoyatda boy va qiziqarli bo'lsa-da, ammo uning zarvaraqlarining ko'pgina sahifalari bizgacha to'liq saqlanmagan. Ayniqsa shaharning uzoq o'tmishi haqidagi ma'lumotlar yozma manbalarda qisman uchraydi.

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi 1922-yildan buyon faoliyat yuritib



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

kelmoqda¹. Muzeyning birinchi direktori A.Po‘latovning so‘zlariga ko‘ra: “Muzey endigina yaratildi, ammo uni eksponatlar bilan boyitish va chinakam zamonaviy muzeyga aylantirish yangi avlodning vazifasidir”². 1927-yil 1-martdan boshlab muzey uchun ko‘rgazma tuzishga kirishiladi. Yig‘ilgan ashyolar saralanib, ularga etiket(yorliq) yoziladi. Muzeyda uchta bo‘lim tashkil etiladi. Ular arxeologiya, etnografiya, tabiat bo‘limlari bo‘lib, etnografiya bo‘limining asosini Buxoro mahalliy aholisining XIX – XX asrlarga oid kiyimlari, zardo‘zlik buyumlari tashkil etadi³. Buxoro amirligi tugatilgach hukumat o‘tmishdan meros bo‘lib qolgan osori-atiqalarga egalik qilish maqsadida ularni bir joyga yig‘ish vazifasini birinchi masala sifatida qo‘ydi. Bu yilda birinchi tashkil etilgan muzey fondida jamlangan ashyolar soni salmoqli darajaga yetadi. To‘plamning katta qismini Buxoroning so‘nggi amiri Olimxondan qolgan buyumlar tashkil etdi.

Buxoro viloyat tarix-o‘lkashunoslik muzeyi fondi asosini xalq maorifi topshirgan, ayrim shaxsiy sovg‘alar, muzey tomonidan sotib olingan predmetlar tashkil etdi. Fondlar asta sekin arxeologik, numizmatik, etnografik ashyolar bilan boyidi. Etnografik ashyolar orasida XIX – XX asrlarga oid mirshablik buyumlari, cholg‘u asboblari, yozuv qurollari, Kitob, Hisor, Qarshi, Buxoro, Nurotada tikilgan erkaklar choponi bor. Bu davrda ashyolar umumiy holda yig‘ildi. Keyinchalik ilmiy yig‘uv ishlari reja asosida tashkillashtirildi⁴. Liboslar kolleksiyasidagi rangdor ipakli, yarim ipak va zarbof to‘nlar - o‘zbek boylarining, oddiyroq yarim ipakli kiyimlar esa - mahalliy ziyolilarning, oddiy gazlama to‘nlar esa oddiy aholining yashash tarzini ko‘rsatib turgan.

Ashyolarni ilmiy yig‘uv ishlari 1930-yildan bir oz susaydi. Uning sifat mazmunida ham o‘zgarishlar yuz berib, asosiy diqqat tarixiy-inqilobiy va zamonaviy mavzuga qaratildi. Buning asosiy sababi, avvalo etnografik kolleksiyalarni komplektlashtirish uchun fondlarda ishchi va kolxozchilarning hozirgi turmushini yorituvchi, hamda sovet hokimiyati yillarida ro‘y bergan o‘zgarishlarni hikoya qiluvchi buyumlarning yetishmasligi edi. Zamonaviy ishchi va kolxozchi turmushi buyumlari kolleksiyalarda to‘la-to‘kis namoyon etish uchun yig‘uv ishida ashyolarni

¹ Ниязова М.И. Из истории деятельности Бухарского музея // Из истории культурного наследия Бухара, № 2. - С 38; Церемония открытия в Бухаре первого музея // Бухоро ахбори 112-сон. 1922.

² Пулатова М. Асрлардан гувоҳлик бериб. // Бухоронома 2002. – Б.4.

³ Болтаев А.Х. Бухоро музейи-тарихий ўлкашунослик маркази сифатида. – Бухоро, 2019. – Б.11.

⁴ Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси.-Тошкент.:Фан, 1981. – Б.178.



to'plovlarini to'ldiruvchi hujjatli va tasviriy materiallar dala kundaliklari, anketalar, suratlar, kinosurat, lavhalar yig'ish ham tobora katta ahamiyat kasb etadi. Buxoroga uyushtirilgan ekspeditsiyalar oktabr revolyutsiyasi, grajdanlar urushi, sotsialistik qurilish va zamonaviy turmush bo'yicha yetishmayotgan materiallarni komplektlashtirish imkonini berdi.

1931-yil 8-fevralda tadqiqotchi P.Y.Kornilov Buxoro davlat muzeyining ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari etib tayinlandi. U kam sonli ilmiy xodimlar bilan birgalikda muzey faoliyatini takomillashtirish bo'yicha faol ish olib bordi. U muzeyning Ilmiy kengashini tashkil etdi, uning tarkibiga muzeyning ilmiy xodimlari etnograflar P.A.Goncharova va A.S.Amitrov, shuningdek, arxeolog V.A.Shishkin, O'zbekiston san'at va qadimiy yodgorliklarni saqlash va o'rganish qo'mitasining Buxorodagi vakolatli vakili (O'zkomstaris) N.A.Kojin kirdi⁵. Ularning ilmiy izlanishlari muzey fondini milliy liboslar va aholi ijtimoiy ahvolini yorituvchi ashyolar bilan salmoqli darajada boyidi.

1930-1940-yillarda Buxoro muzeyi tomonidan bir qator etnografik ekspeditsiyalar uyushtirilib, hunarmandchilikning turli sohalarida qo'llanilgan an'anaviy naqshlarning terminologiyasi, tavsifi va naqshlari bilan bog'liq ilmiy ma'lumotlar to'plandi. Muzey xodimlari Vobkent va G'ijduvon tumanlaridagi paxta matolaridagi badiiy naqshlarga oid materiallarni tanlab, qayta ishlashdi. Ustalar muzey xodimlari nazorati ostida naqshlarning nomlari ko'rsatilgan naqsh qoliplari namunalarini tayyorladilar. 1931-yilda muzey xodimlari ipak to'qish ishlab chiqarishini o'rganish maqsadida Xonobod qishlog'iga (Buxoro tumani) borib ish jarayonida mahalliy nomlar bilan ataluvchi Buxoro baxmal, adras va alacha, Buxoro va Hisor shoyi namunalari xarid qilindi. Muzey xodimlari Buxoroga xos zardo'zlik buyumlarining namunalarini to'plagan. Eski buxorolik ustalar tilidan urf-odat va marosimlar, naqshlar va kompozitsiyalar yozib olingan⁶.

1931-yilda Ko'kaldosh madrasasining birinchi qavatidagi olti hujrada joylashgan muzey ko'rgazmasining to'rtinchisi Buxoro zardo'zlik san'atining namunalariga ajratilgan bo'lib, unda Buxoro milliy liboslarining zardo'zi san'atida bezatilgan

⁵ Курбанов Ф. П. Е.Корнилов: годы работы в Бухарском государственном музее / «Актуальные вопросы развития искусствоведения в России, странах СНГ и Тюркского мира», Материалы Международной конференции. – Казань: 2017. С. 108-111.

⁶ Курбанов Ф. Орнаменты предметов ремесленного производства Бухары (этнографические экспедиции Бухарского музея) // Орнаментика в артефактах традиционных культур. Материалы Пятнадцатых Санкт-Петербургских этнографических чтений. СПб, 2016, с. 303- 305.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

namunalari qo'yilgan⁷. 1931-yildan boshlab muzey ilmiy xodimlariga o'lkashunoslik sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish vazifasi yuklanadi va ilmiy xodimlar o'lka tarixiga oid ashyolarni yig'ish, o'rganish bilan shug'ullanadilar. Natijada muzey kolleksiyasi ancha boyidi, ular orasida zardo'zlik namunalari, kiyim-kechaklar, mahalliy mato turlari ham bo'lib, ularning ayrimlari muzeyga ko'ngillilar tomonidan sovg'a qilingan bo'lsa, ayrimlari sotib olingan.

1937-yili Buxoroda kashta va mahalliy kiyim-kechak to'plash, o'rganish va sotib olish ishlari amalga oshirildi. Shu maqsadda dastlab chevarlar ishi o'rganilib, 68 xildagi naqsh vujudga keltirildi. Kashtachilik, buyoqchilik texnologiyasi, kashtadan turmushda foydalanish vositalariga oid materiallar to'plandi. Natijada muzeyda noyob namunalarga ega bo'lgan 42 dona Buxoro kashtasi kolleksiyasi vujudga keldi. Buxoro viloyat tarix-o'lkashunoslik muzey fondidagi etnografik ashyolar tarkibidagi liboslar Kitob, Hisor, Qarshi, Buxoro, Nurotada tikilgan erkaklar choponi, zardo'zlik maxsulotlari kishi e'tiborini o'ziga jalb qilmay qo'ymaydi. Dastlabki kolleksiyalar tasodifiy tushumlar natijasida to'planganligi sababli kolleksiyalar ma'lum tartibda emas edi. Shuning uchun bu kolleksiyalar ijtimoiy hayotni to'la yoritib bermadi. Keyingi yillarda uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalar esa katta natijalarni qo'lga kiritishga sabab bo'ldi. Natijada Buxoro muzeyi ma'lum mavzular asosida to'liq ko'rgazma tashkillashtira oldi.

1946-yilga kelib muzey fondiga bir qancha eksponatlar qabul qilingan va muzey ashyolari soni sakkiz mingtani tashkil etdi. 1965-yilda bu ko'rsatkich o'n besh mingdan ortdi va ularning kattagina qismini liboslar tashkil etadi⁸. 1967-1969-yillarda muzey ilmiy xodimlari o'lkani o'rganish ishlarini faol olib borib ko'plab buyumlar va kitoblar to'plashga muvaffaq bo'lishadi. Ro'yxatga olingan eksponatlar orasida zardo'zlik buyumlari, zargarlik buyumlari, kaltacha va boshqa turdagi liboslar ham bor.

1980-yildan boshlab muzey ilmiy xodimlari eksponat yig'ish uchun maxsus ilmiy safarlar uyushtirishgan. Ular Romitan, Peshku, Shofirkon, Qiziltepa, Vobkent, G'ijduvon va Buxoro tumanlariga borib aholi orasidan ko'plab noyob osori-atiqalar, liboslar, mato turlari va boshqa buyumlarni sotib olishadi. Mustaqillik yillarida

⁷ Klichev O., Boltayev A. Buxoro muzeysunosligi va arxivshunosligi. O'quv qo'llanma.-Buxoro, 2020. – B. 44.

⁸ Klichev O., Boltayev A. Buxoro muzeysunosligi va arxivshunosligi. O'quv qo'llanma.-Buxoro, 2020. – B.65.



R.V.Almeyer tomnidan muzeylarni madaniy va iqtisodiy, sotsial-madaniy rivojlantirish yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib boriladi⁹. Fond-bu muzey poydevori bo‘lib¹⁰, hozirda Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi fondini 4800 dan ortig‘ini kiyim-kechaklar, kamarlar, poyabzallar, bosh kiyimlar, ayollar yopinchiqlari, matolar, so‘zani va boshqalar tashkil etadi. Bularning barchasi muzey qo‘riqxonasining ko‘plab ekspozitsiyalari va ko‘rgazmalarida namoyish etilib, Buxoroning boy tarixini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Klichev O., Boltayev A. Buxoro muzeysunosligi va arxivshunosligi. O‘quv qo‘llanma.-Buxoro, 2020.
- 2.Болтаев А.Х. Бухоро музейи-тарихий ўлкашunoslik маркази сифатида. – Бухоро, 2019. – Б.11.
- 3.Курбанов Ф. Орнаменты предметов ремесленного производства Бухары (этнографические экспедиции Бухарского музея) // Орнаментика в артефактах традиционных культур. Материалы Пятнадцатых Санкт-Петербургских этнографических чтений. Спб, 2016, с. 303- 305
- 4.Курбанов Ф. П. Е.Корнилов: годы работы в Бухарском государственном музее / «Актуальные вопросы развития искусствоведения в России, странах СНГ и Тюркского мира», Материалы Международной конференции. – Казань: 2017. С. 108-111.
- 5.Ниязова М.И. Из истории деятельности Бухарского музея // Из истории культурного наследия Бухара, № 2. - С 38;
- 6.Ниязова М.И. Церемония открытия в Бухаре первого музея // Бухоро ахбори 112-сон. 1922.
- 7.Пулатова М. Асрлардан гувохлик бериб. // Бухоронома 2002. – Б.4.
- 8.Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси.-Тошкент.:Фан, 1981. – Б.178.

⁹ Альмеев Р.В. Бухара город-музей Т.:Фан 1999. - С. 128.

¹⁰ Альмеев Р. Оптимизация, хранение и экспонирование музейных фондов // Мозийдан садо. 2008. №2. - С.2-3.